
Sohibkor mahallasida ichimlik suvi ta'minoti yo'lga qo'yiladi



Sohobkor mahallasida ichimlik suvi ta'minoti yo'lga qo'yiladi

Prezidentimizning Farg'ona viloyati faollari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida hududlardagi ichimlik suvi ta'minoti muammolari haqida gapirilgan va bu bo'yicha mutasaddi vazirliklarga topshiriqlar berilgan edi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning oxirigacha So'x tumanida ichimlik suvi ta'minotining ko'rsatigichi 90 foizga yetkaziladi.

Ayni kunda tumanning 1-sektori hududidagi Sohobkor mahalla fuqarolar yig'inida bu bo'yicha ishlar olib borilyapti. Mahallada suv quvurlarni yotqizishga mo'ljallangan transheyalar qazish ishlari boshlab yuborilgan va bu bo'yicha maxsus texnikalar safarbar etilgan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-07-07 18:01:27